

RESEARCH ARTICLE

Overcoming Linguocultural Barriers And Challenges In Translation

Shoira Usmanova

Professor, Doctor of Philological Sciences Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 53-56

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

The research article analyzes the reasons for the emergence of certain linguocultural barriers in Korean and Uzbek communication cultures and presents ways to overcome them as well as methods of accurate translation.

KEY WORDS

Intercultural communication, linguocultural barrier, pragmatic means, communication strategy, communicative error.

INTRODUCTION

Madaniyatlararo muloqot muammolari bilan shug'ullan-gan aksariyat xorijlik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, chet el-lik-lar bilan muomalada bo'lganda tildagi grammatik, leksik va uslubiy xa-tolar kechiriladi, chunki bu ulardagi til bilimining yetarli emasligi bi-lan izohlanadi. Biroq muloqot jarayonida ijtimoiy-madaniy me'yor-larning, odob-axloq qoidalarining buzilishi salbiy qabul qilinadi. Chun-ki bunday me'yorlarning buzilishi muayyan madaniyat va-ki-lining kamsitilishi yoki haqoratlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Kom-munikativ xatolar madaniy shok holatini yuzaga chiqarib, shaxs-lararo va millatlararo muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uch-rashiga, hatto jiddiy to'qnashuv, geosiyosiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Madaniyatlararo to'qnashuvlar (umuman to'qnashuvlar) yuzaga ke-lish sabablarining ko'lami nihoyatda keng: to'qnashuv asosida na-fa-qat til bilimining yetarli emasligi hamda suhbatdoshini tushun-mas-lik, balki kommunikatsiya qatnashchilarining o'zi ham aniq ang-lab yetmagan chuqurroq sabablar yotadi.

Ma'lumki o'zbek muloqot madaniyati juda boy, nozik va asosan kon-tekstga tayanadigan o'ziga xos tizim hisoblanadi. Shu

sababli xo-rij-liklar, hatto O'zbekistonning boshqa hududlaridan kelgan meh-mon-lar ham kommunikatsiya jarayonida muayyan pragmatik to'siq-lar-ga duch keladi.

Mazkur maqolada koreys va o'zbek muloqotidagi ba'zi ling-vo-ma-daniy to'siqlarni bartaraf etish va ularni tarjimasi xususida fikr-mu-lohazalar bildiriladi.

1. Nazokat va hurmatning ifodalanishi

Koreys jamiyati va muloqotidagi iyerarxik munosabat koreys ti-li-ning nazokat va hurmat shakllariga favqulodda boy ekanligi bilan xa-rakterlanadi. Qaysi vaziyatda qaysi hurmat darajasini ishlatish ma-salasi koreys tilining deyarli 80% pragmatikasini tashkil qiladi. Hur-mat darajalari asosan quyidagicha ajratiladi:

1) o'ta yuksak darajadagi hurmatli shakli (아주 높임말): ting-lov-chiga eng ko'p hurmat ko'rsatiladigan o'ta rasmiy darajadagi so'z-la-shuv shakli.

2) oddiy hurmat shakli (존댓말): eng keng tarqalgan so'zlashuv shak-li bo'lib, u kundalik muloqotda yoshi kattalar,

o'qituvchilar, ish beruvchilar va notanishlarga nisbatan ishlatiladi.

3) oddiy uslub (반말): tengdoshlar, do'stlar yoki kichik yoshda-gi-larga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbek tilida esa hurmat ko'proq leksik va pragmatik vositalar yor-damida ifodalanadi, grammatik tizimda qat'i shakllar kamroq qo'l-laniladi. Chunonchi, o'zbek tilida hurmat ko'proq nutqiy odob ifo-dalari (sizlab murojaat qilish, iltifotli so'zlar ishlatish) orqali na-mo-yon bo'lsa, koreys tilida bu maxsus grammatik vositalar orqali aniq ifodalanadi.

Shu bois o'zbek tilida so'zlashuvchilar koreys tili sohiblari bilan muloqot chog'ida hurmat shakli (존댓말) o'rninga oddiy uslub (반말)ni qo'l-lab yuborib, qo'pol xatoga yo'l qo'yishadi. Bu lingvomadaniy to'siqni keltirib chiqaradi.

2. Fikrni implisit tarzda ifodalash

Koreys va o'zbek muloqoti yuqori kontekstli madaniyatga man-sub bo'lib, unda muayyan fikr-mulohazalar ochiq, to'g'ridan-to'g'ri aytilmasdan yashirin (implisit)ishora orqali bilvosita ifodalanadi.

Masalan koreys lingvomadaniyatida:

이건 좀...[igeon jom] tugallanmagan jumla hisoblanadi. Unung so'z-ma-so'z tarjimasi: "Bu biroz..." bo'lib, ko'pincha bu muloyim rad etish uchun yetarli bo'ladi.

좀 힘들 것 같아요 [jom himdeul geot gatayo] so'zma-so'z tarjimasi: "Bu biroz qiyinga o'xshaydi". Aslida "Yo'q, bo'lmaydi"ni agnlatadi.

"생각해 볼게요" [saenggakhae bolgeyo] "O'ylab ko'ramiz".

Koreys va o'zbek tillarida "O'ylab ko'ramiz" deyilganda aslida "Men qiziq-ma-yap-man" ma'nosini bildiradi.

Shuningdek, o'zbek tilida:

"Hali ko'rib chiqamiz" – 90 % rad javobi

"Maslahatlashib, keyin javobini aytamiz" – 80 % rad javobi.

Lingvomadaniy to'siq: Albatta, bunday javoblar chet elliklar to-monidan noto'g'ri tushuniladi va ular "Ha, imkoni borakan" deb o'ylaydi.

Koreys va o'zbek muloqotida to'g'ridan-to'g'ri rad javobini be-rish odob-axloq me'yorlariga to'g'ri kelmaydi. Shuning

uchun mu-loqot jarayonida quyidagi iboralarni qo'llash qo'pollik hisoblanadi:

Xato: "Yo'q, bo'lmaydi"; "Yo'q, men bormayman"; "Men buni qil-may-man". To'g'ri: "Hozir biroz qiyin"; "Balki keyinroq imkon bo'lar"; "Ke-yin-gi safar albatta, boraman".

3. Gapni uzaytirish, kirish so'zlari qo'llash

Koreys muomala madaniyatida suhbatdoshning hissiyotlarini e'ti-borga olish muhim hisoblanadi. Shu bois muloqotdagi kiborlik va mu-loyimlikni saqlash maqsadida avval kirish gap, keyin maqsad ang-latilib, jumla so'nggi yumshoq izohlar bilan yakunlanadi. Masalan:

"저... 혹시 바쁘시면 괜찮은데요, 부탁 하나 드리고 싶은데요..." [jeo... hoksi bappeusimyeon gwaenchanheundeyo, butak hana deu-ri-go sipeundeyo...]

Quyidagicha tarjima qilish mumkin:

– Agar band bo'lmasangiz... yo'q, band bo'lsangiz ham mayli... siz-dan bir iltimosim bor edi...

Lingvomadaniy to'siq: Bu o'rinda chet ellik ko'rsatilgan prag-ma-tik muloyimlikni tushunmay: "Nega buncha gapni aylantiradi?" deb o'ylaydi.

O'zbek muloqot madaniyatida ham xuddi shunga o'zshash suh-bat-ni boshlashdan oldin salomlashish majburiyati mavjud. Shuning uchun suhbatni avval salom-alik bilan, hol-ahvol so'rash, umuman, yum-shoqroq kirish so'zlari bilan boshlash odatiy holdir. Salom-alik-siz mavzuga sakrab o'tish takallufsizlik sanaladi. Masalan:

Xato: "Sizdan bir narsa so'ramoqchiman" yoki "Sizdan bir narsa so'-ramoqchi edim".

To'g'ri: "Assalomu alaykum! Yaxshi yuribsizmi? Sizdan bir narsa so'-ramoqchi edim". Keyin asosiy maqsadga o'tiladi.

Chunki, o'zbek nutqiy etiketining "Salomlashish" vaziyati bosh-qa madaniyatlardan farqli o'laroq, salomdan keyin bevosita mav-zu-ga o'tmasdan, balki "hol-ahvol so'rash" bilan uzoqroq davom etadi. O'z-beklar, odatda, salomdan keyin "Yaxshimisiz?", "Yaxshi yurib-siz-mi?", "Qalaysiz?", "Uy-ichilar tinchmi?", "Onangiz, otangiz... yaxshi yu-rishibdimi?", "Bola-chaqalar yaxshimi?", "Sog'-omonmilar?", "Kat-ta-kichiklar yaxshimi?" va h. k. iboralarni qo'llab hol-xotir so'-ra-sha-di. O'zbek nutqiy etiket qoidalarida suhbatdoshning yaqinlari, oila a'zolari, qarindoshlari haqida

hol-ahvol so'ramasdan ketib qolish hur-matsizlik sanaladi. Bunday vaziyatlarda chet elliklarda "Shuncha or-tiqcha gapning nima keragi bor" degan lingvomadaniy to'siq yuzaga ke-lishi mumkin.

Koreys nutqiy odob-axloqida suhbatdoshning ovqat yeb-yema-gan-ligidan xabardorlik to'g'risidagi salomlashish tarixiy davrlardan saqlanib qolgan. Masalan: 밥 먹었어요?

[bap meogeosseoyo?] yoki 식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?]. Bu iboraning so'zma-so'z tar-ji-ma-si: "Siz guruch yedingizmi?" bo'lib, aslida undan "Ovqatlan-din-giz-mi?" ma'nosi anglashiladi.

Lingvomadaniy to'siq: Chet elliklar nazdida mazkur ibora "Ovqat yemagan bo'lsangiz, birga ovqatlanaylik" degan ma'noda ay-til-di, deb no'tog'ri talqin qilinadi. Aslida bu ibora suhbatdoshning ovqatlangan yoki ovqat yemaganligini aniqlash uchun ishlatilmaydi.

Tog'ri tarjimasini: Koreys tilidagi 밥 먹었어요? [bap meogeosse-o-yo?] yoki 식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?]. iborasi o'zbek tilida ma'-no jihatdan: "Qalaysiz?" iborasiga muqobil bo'ladi. Shuning uchun, suhbatdoshning ovqatlangan yoki ovqatlanmaganligidan qat'i nazar, bu savolga, odatda, 네, 먹었습니다 [ne, meogeotseumnida] "Ha, yedim" – deb javob berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Ritual xarakterdagi iboralar

O'zbek muloqot madaniyatida suhbatdoshga nisbatan qo'l-la-ni-la-di-gan aksariyat iboralar ritual xarakterga ega (xalq orasida "Qo'-qon-cha manzirat" ham deyiladi). Masalan:

"Biznikiga kelinglar"

"Bir o'tiradigan bo'lib kelinglar"

"Choy ichib keting" va hokazo.

Bunday iboralar aslida takalluf, manzirat uchun aytiladi. Biroq chet elliklar tomonidan bunday iboralar to'g'ridan-to'g'riga qabul qi-li-nadi. Masalan, bir o'zbek mezbos chet ellik mehmonga: "Uyga o'ting" yoki "Biznikiga keling" desa va bu mehmon haqiqatan ham "OK. Keldim" deb uyiga kelib qolsa, biroz noqulay ahvol yuzaga chi-qi-shi mumkin.

To'g'ri javob: "Rahmat, biron kun albatta boraman". Yoki: "Xudo xoh-lassa, o'tamiz".

Xullas, koreys va o'zbek muloqotidagi lingvomadaniy to'siqlarni ka-maytirish uchun, avvalo, ikki xalqning madaniyati, qadriyatlari, nut-qiy etiketi hamda kommunikativ odatlari o'rtasidagi tavofutlarni chuqur anglash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Lingvomadaniy muammolar va pragmatik to'siqlarni bartaraf etish va ularni to'g'ri tarjima qilishda quyidagi yechimlar samarali bo'-lishi mumkin:

1. Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish

Ikki xalq o'rtasidagi muloqotning muvaffaqiyati va samara-dor-li-gi, birinchi navbatda, madaniy sezgirlikni rivojlantirish va madani-yat-lararo tushunishni oshirishga bog'liq. Bu jarayonda:

- iyerarxik tizimdagi ijtimoiy rollar va hurmat kategoriyalarini tog'-ri qo'llash (koreys tilidagi nutq darajalari yoki o'zbek tilidagi mu-rojaat shakllari);

- kontekstga asoslangan ma'nolarni anglash;

- bevosita va bilvosita nutq farqlarini tushunish katta ahami-yat-ga ega.

2. Til bilan birga madaniyatni ham o'rganish

Lingvomadaniy to'siqlar yuzga kelishining asosiy sababi – tilni ma-daniyatdan ajralgan holda o'rganishdir. Binobarin, til va ma-da-ni-yat har doim o'zaro aloqada bo'lib, madaniyat til birliklari vositasida na-moyon bo'ladi.

3. Muloqot strategiyalarini o'rganish

Ikki madaniyat vakillarining muloqot jarayonida qo'llaniladigan di-rektiv va nodirektiv, pozitiv va negativ nutqiy etiket stra-te-gi-ya-la-ri-ni bilish lingvomadaniy to'siqlarni kamaytiradi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- savollarni ehtiyotlik bilan so'rash;

- tushunmovchilik yuzga kelganda ochiq izoh so'rashdan tortinmaslik;

- to'qnashuv holatlarida muloyim, yumshoq tilda muomala qilish;

- hazil va kinoyaning madaniy chegaralarini tushunish.

4. Entomadaniy tabular va nozik mavzularga e'tibor qaratish

Koreys muloqotida iyerarxiya, yosh farqi, maqom, o'zbek mu-lo-qo-tida esa oila, sog'liq, moddiy hayot yoki shaxsiy hayot kabi ma-sa-la-lar nozik mavzular hisoblanadi. Mazkur

mavzular bo'yicha izohlar berilishi muloqotni silliqashtirishga xizmat qiladi.

5. Muloqot jarayonida noverbal vositalarni to'g'ri qo'llash

Madaniyatlararo muloqot jarayonida noverbal muomala muhim o'rin tutadi. Biqor mazkur muloqotda qo'llanilgan ramzlar o'zaro aloqa ishtirokchilari uchun turli ma'no ifodalashi mumkin. Bunday no-muvofiqlik o'zaro aloqa samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois madaniyatlararo muloqotda, ayniqsa, noverbal vositalarni to'g'ri talqin qilish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, koreys va o'zbek muloqotidagi lingvo-madaniy to'siqlar tabiiy jarayon bo'lib, ular madaniyatlarning boyligi, xilma-xilligi, qolaversa, milliy o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Lingvo-madaniy to'siqlarni bartaraf etish madaniyatlararo muloqotda yuzaga chiqadigan to'qnashuvlarni, kommunikativ xatolar va madaniy shok holatini oldini oladi.